



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.1 № 1

2024

**“IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA
ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR”**
ilmiy-metodik jurnali

Bosh muharrir:

Boltaeva Mohichehra

Tahrir hay'ati:

07.00.00 - Tarix fanlari

- Ergasheva Yulduz — Tarix fanlari doktori, professor
- Zununova Gulchehra — Tarix fanlari doktori, professor
- Kurbonova Zemfira — Tarix fanlari doktori, professor
- Askar Jumashayev — Tarix fanlari doktori, professor
- Nurjanov Sabit Uzakbayevich — Tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Xaydarov G'ayratbek Mirzapulatovich — Tarix fanlari doktori, dotsent
- Seydametova Gulnara Utarbayeva — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent
- Nasirov Bunyod — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent

09.00.00 - Falsafa fanlari

- Yaxshilikov Juraboy Yaxshilikovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Saitkasimov Akbar Isaxanovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Musaev Odil Raxmatovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Suvanov Ilxom Abduxalilovich — Falsafa fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Alima Berdimuratova — Falsafa fanlari doktori, professor
- Kabulniyazova Gulchehra Tashpulatovna — Falsafa fanlari doktori, professor
- Siddikov Ilyos — Falsafa fanlari doktori, dotsent

10.00.00 - Filologiya fanlari

- Zakirova Soxiba — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Ganiyeva Shodiya Azizovna — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Soatova Nodira — Filologiya fanlari doktori, professor
- Kobilova Zeboxon Bakirovna — Filologiya fanlari doktori, professor

13.00.00 - Pedagogika fanlari

- Jo'rayev Risbay Xaydarovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turgunoy Egamberdiyeva — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Ibragimov Xolboy Ibragimovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turakulov Olim Xolbutayevich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Abdullayeva Barno Sayfutdinovna — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Ismoilov Temur Islamovich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Umid Negmatovich Xo'jamqulov — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Isakulova Nilufar — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Jumanəzova Muxayyo Tojiyevna — Pedagogika fanlari doktori, dotsent

19.00.00 - Psixologiya fanlari

- Abdullayeva Dilbar — Psixologiya fanlari doktori, professor
- Atabayeva Nargis Batirovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent,
- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
- Umarov Baxriddin Mengboyevich — Psixologiya fanlari doktori, professor

- Shamshetova Anjima Karamaddinovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent
- Norbekova Barno — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent
- Abdumajidova Dildora — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

23.00.00 - Siyosiy fanlar

- Jo'raqulov Furqat Norjigitovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Axmedov Husnidin Alikulovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Musaev Mansur Tursunpulatovich — Siyosiy fanlar doktori, katta ilmiy xodim Ravshanov
- Fazluddin Ravshanovich — Siyosiy fanlar doktori, dotsent

22.00.00 - Sotsiologiya fanlari

- Xolbekov Abdug'ani Jumanazarovich — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Sodiqova Shoxida Marxaboyevna — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Gabdrahmanova Gulnara Faatevna — Sh. Marjani nomidagi Tarix instituti, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Kamalova Xatira Sabirovna — Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

"Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar" - bu ilmiy-metodik jurnal bo'lib, O'zbekistonda 2024-yildan beri nashr etilmoqda. Jurnal har chorakda bir marta, yiliga 4 marta chop etiladi. Ushbu jarayonga talabga ko'ra muassislar va tahrir hayati bilan birgalikda kelishgan xolda o'zgartirish kiritish mumkin.

MUNDARIJA

07.00.00 - Tarix.....	5
ОБРАЗОВАНИЕ КАРАКАЛПАКСКОЙ АВТОНОМНОЙ ОБЛАСТИ: СТРАНИЦЫ ИСТОРИИ.....	5
Джумашев Аскар Мамбетович.....	5
07.00.00 - Tarix.....	10
О‘RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR.....	10
Abdullaev Ulug‘bek Saydanovich.....	10
Shamshiddinov Baxriddin Sharobiddin o‘g‘li.....	10
09.00.00 - Falsafa.....	15
FALSAFIY ANTROPOLOGIYA MUSTAQIL BILIM SOHASI SIFATIDA.....	15
Qabulniyazova Gulchexra.....	15
09.00.00 - Falsafa.....	21
ISLOM FALSAFASIDA GNOSEOLOGIK FAOLIYATNI OLIB BORISHGA DOIR QARASHLARNING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI.....	21
Siddiqov Ilyosjon Baxromovich.....	21
13.00.00 - Pedagogika.....	33
РАССМОТРЕННЫ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ СПЕЦИАЛЬНОСТИ “ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ” К УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	33
Мухаммадиев Комил Бурхонович.....	33
13.00.00 - Pedagogika.....	49
SO‘ROVNOMAGA ASOSLANGAN TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	49
Isakulova Nilufar Janikulovna.....	49
10.00.00 - Filologiya.....	57
SHE‘RIYATDA FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK.....	57
Soatova Nodira Isomitdinovna.....	57
10.00.00 - Filologiya.....	65
DETEKTIV QISSA YARATISHDA USLUBIY O‘ZIGA XOSLIK.....	65
Turopova Parizod Shavkat qizi.....	65
10.00.00 - Filologiya.....	71
XORAZM MATBUOTI TARIXIDAN.....	71
Iqboloy Adizova Istamovna.....	71
19.00.00 - Psixologiya.....	82
O‘SMIRLIK DAVRIDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	82
O‘tamurodov Samandar G‘ulom o‘g‘li.....	82
19.00.00 - Psixologiya.....	87
OILADA OTA-ONA MUNOSABATLARINING BOLALARDA MILLIY FAZILATLARNI SHAKLLANISHIGA TA‘SIRI.....	87
Norbekova Barno Shavkatovna.....	87

19.00.00 - Psixologiya.....	92
SPORT PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING MUAMMOLARI: KONTENT	
TAHLILI.....	92
Abdullayev Akobr Shokir o‘g‘li.....	92

19.00.00 - Psixologiya

**O'SMIRLIK DAVRIDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

O'tamurodov Samandar G'ulom o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi SamDU 2-bosqich magistranti

samandarotamurodov2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk allomalarimizning axloqiy me'yorlarda og'ish muammolari borasidagi fikr-mulohazalari, hamda o'smirlik davrida destruktiv xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik muammolari o'rganiladi. Psixologik yondashuvlar yordamida o'smirlarning bu xulq-atvorlariga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi va ularni kamaytirish uchun imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. Natijada, tadqiqot o'smirlarning psixologik salomatligini yaxshilash va destruktiv xulq-atvorni kamaytirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, xulq-atvor, psixik sog'lomlik, jismoniy sog'lomlik, shaxs, axloq

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENCE

Otamurodov Samandar Gulomovich

2nd-year Master's student at Sharof Rashidov Samarkand State University)

Abstract. This article explores the views of our great scholars on the issues of deviation from moral norms, as well as the social and psychological problems related to the formation of destructive behavior during adolescence. Psychological approaches are used to identify the factors influencing these behaviors in adolescents and to discuss opportunities for reducing them. As a result, the research aims to improve the psychological well-being of adolescents and develop effective strategies for reducing destructive behavior.

Keywords: adolescence, behavior, psychic wellness, physical wellness, personality, ethics.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Утамуродов Самандар Гуломович

Магистрант 2-го курса Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

Аннотация. В данной статье рассматриваются мнения наших великих ученых о проблемах отклонения от моральных норм, а также социально-психологические проблемы, связанные с формированием деструктивного поведения в подростковом возрасте. С помощью психологических подходов выявляются факторы, влияющие на это поведение у подростков, и обсуждаются возможности его снижения. В результате исследование направлено на улучшение психологического благополучия подростков и разработку эффективных стратегий для уменьшения деструктивного поведения.

Ключевые слова: подростковый возраст, поведение, психическое здоровье, физическое здоровье, личность, мораль.

KIRISH. O'smirlik davri shaxsning eng muhim va murakkab rivojlanish bosqichlaridan biridir. Bu davrda o'smir o'z o'rnini izlab, mustaqil shaxsga aylanishga harakat qiladi, ammo bu jarayonda ba'zan destruktiv xulq-atvor ham shakllanadi. Destruktiv xulq-atvor - bu jamiyat me'yorlariga zid keladigan va o'ziga yoki atrofdagilarga zarar yetkazadigan xatti-harakatlardir.

Inson xulqida jamiyatda qabul qilingan me'yor va mezonlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, ijtimoiy taraqqiyot omillaridan biriga aylangandir. Ushbu me'yor va mezonlar nafaqat ijtimoiy barqarorlikka, balki individning o'zini ham ruhiy barqarorlik va taraqqiyoti uchun zarurdir. Jamiyatda axloqiy ma'naviy madaniy xulq ko'rinishlari shakllanish, ushbu talablar darajasidan og'ish masalalari qadimdan allomalarimiz tomonidan alohida e'tibor berib kelingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Axloqiy me'yorlardan og'ish muammolari Abu Nasr al Forobiyning "Baxtga erishish yo'lini ko'rsatuvchi kitob", "Baxtga erishish haqida", "Davlat arbobining hikmatlari", "Fozil odamlar shahri" singari asarlarida ko'tarilgan. Alloma o'z qarashlarida fazilatga juda katta o'rin beradi. Arastuga o'xshab, u ham fazilatlarini ikki qismga fazoil nutqiya [aql-idrokka asoslangan fazilatlar] va fazoil xulqiya [xulqiy fazilatlar]ga ajratadi hamda ularning o'rtalik xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi. Buyuk vatandoshimizning fikricha, insonga uni go'zal amallar qilish uchun yo'naltiradigan odat mahsuli bo'lmish yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda me'yor qay darajada saqlangani bilan bog'lanadi [6].

Yana bir sharq allomasi Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida insonlar va xalqlarning ijobiy yoki salbiy urf-odatlarini, xulq-atvorining shakllanishida tabiiy muhitning hamda jug'rofiy omillarning ahamiyatini ko'rsatib berdi [4]. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari asosan "Axloq ilmiga doir risola", "Burch to'g'risida risola", "Nafsni pokiza tutish to'g'risida risola", "Adolat haqida kitob", "Turar joylardagi tadbirlar" singari asarlarida va o'z zamondoshlari bilan olib borgan munozara-yozishmalarida o'z aksini topgan [7]. Yusuf Xos Hojib tomonidan inson xulq atvoriga nisbatan o'ziga xos yondashuvda yaxshi xulq ham, yomon xulq ham, ikki xil bo'lishi mumkin: tug'ma va ijtimoiy muhit natijasida shakllangan xulq [5]. Yusuf Xos Hojib axloqiy-falsafiy qarashlari bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan, chunki u umuminsoniy, ma'naviy negizlarni o'rgatadi. Allomaning o'gitlariga tayangan holda biz ham yosh avlodni shunday ruhda tarbiyalashimiz lozim. Zero, jamiyatda axloq odob yo'qolsa jamiyatda ma'naviy jihatdan kambag'al insonlar ommasi vujudga keladi. Xitoy faylasufi Syunzaq va qadimgi yunon faylasufi Aflotun insonda buzg'unchilik sari undovchi xususiyatlar mavjud ekanligi ta'kidlaganlar [3].

E.Frommning ta'kidlashicha, erkinlik va xavfsizlik o'rtasidagi katta farq inson hayotidagi barcha qiyinchiliklarning sababi bo'ldi. Odamlar ozodlik uchun kurashadilar, lekin shu kurashning o'zi insonning tabiat va jamiyatdan begonalashuviga olib keladi. Yolg'izlik, ahamiyatsizlik va begonalashuv hislarini yengib o'tish va bu kurash orqali ozodlikka erishish uchun inson quyidagi yo'llardan birini tanlaydi:

Birinchi yo'l — ozodlikdan voz kechish va o'z individualligini bosish. E.Fromm "O'z ozodligidan kechayotgan" odam bir nechta strategiyadan foydalanishi mumkin deb aytadi. Ulardan birinchisi — avtoritarizm — o'zini kim bilandir yoki nima bilandir qiyoslashga bo'lgan intilish va bu orqali yo'qolgan individual "Men"ni topishga va kuch qudratga ega bo'lish. Avtoritarizm sadistik tendensiyalarda ko'rinishi mumkin. Bu tipga mansub odamlarda Sadomazoxizm xarakter belgilari namoyon bo'ladi, ular o'z hayotiy talofati sabablarini bartaraf etish maqsadida, o'z agressiyasini, uning nazarida, barcha ko'ngilsizliklar aybdori bo'lgan shaxsga yo'naltiradi.

Ikkinchi yo'li — destruktivlik. "Destruktiv" xarakter xislatlariga ega o'smir o'zidagi kemtiklik hissini yengib o'tishga intiladi. E.Frommning ta'kidlashicha, "Destruktivlik — zo'riqqan kuchsizlik hissidan qutulish vositasidir". Odatda, vahimaga beriluvchi va o'zini

kuchsiz his etuvchi, o'z intellektual salohiyatini amalga oshirolmagan odamlar bo'zg'unchilik orqali o'z muammolarini hal qiladilar. Ijtimoiy tuntarishlar va qo'zg'olonlar paytida bunday insonlar asosiy kuch sifatida maydonga chiqishadi va mavjud tartibni bo'zib, shu jumladan madaniyatni ham buzish orqali o'z qobiliyatini namoyon qiladilar. [8].

MUHOKAMA. Insondagi destruktiv xulq tabiati hozirga qadar psixologiya fanida hali yaxshi o'rganilmagan muammolardan biri sanaladi. Bu muammoning shakllanishi XX asrda paydo bo'lgan. Bu boradagi psixologik yondashuv shaxsning og'ishgan xulqidagi alohida ko'rinishlarini ijtimoiy psixologik tafovutini ajratishga asoslangan.

Destruktiv xulqning barcha ko'rinishlarida insonning ma'lum bir himoya reaksiyalari sifatida yuzaga kelsada biroq nerv sistemasida buzilishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Destruttiv xulq bolalikdagi salbiy emotsional kechinmalar, ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yetarli darajada mehr muhabbatga ega bo'lmaganligi, nasliy omillar bo'lishi ham mumkin [1].

Ushbu holatlarni tahlil qilganimizda, quyidagi xulosalarga olib keladi:

Psixik sog'lomlik holati hayot davomida qo'zg'ovchi omillar ta'sirida o'zgarib turishi mumkin;

Jismoniy sog'lomlik holati hayot davomida keskin yomonlashish mumkin. Natijada inson hech qanday qonun qoidalarga bo'ysunishni xohlamay qoladi;

Kasbiy sohada muvaffaqiyatsizliklar. Bu holatlarda inson o'zining noto'kisligini, qo'yilgan talablarga javob bera olmasligini his etadi. Natijada, o'z-o'ziga baho berish darajasi pasayadi, ijtimoiy mavqeini yo'qotadi, o'ziga bildirilgan e'tirozlarni adolatsiz deb qabul qiladi.

Maishiy moddiy muammolar - insonlarning kundalik turmush kechirishiga ta'sir qiladigan, moddiy yoki moliyaviy yetishmovchiliklar bilan bog'liq muammolardir. Ushbu muammolar insonlarning umumiy hayot sifati, psixologik holati va jamiyat bilan bo'lgan aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Alkogol yoki narkotik moddalarni iste'mol qilish. Alkogol va narkotik moddalarni iste'mol qilish bugungi kunda dunyo bo'ylab jiddiy ijtimoiy va sog'liqni saqlash muammosiga aylangan. Ushbu moddalar inson organizmiga turli yo'llar bilan ta'sir qilib, jismoniy va psixologik salomatlikni izdan chiqaradi, ijtimoiy munosabatlarni buzadi hamda ko'plab iqtisodiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

O'smirni turmush sharoiti (jismoniy va ruhiy kamchiliklari, yetimlik va hokazo). Ko'pchilik holatlarda o'smir o'z "shaxs" strukturasi boshqa muhitda topmoqchi bo'ladi. Atrofdagilarni nasihatlarini uni battar jahlini chiqaradi, o'zlarini o'ta "bilimli" qilib ko'rsatib, e'tiborini jalb qiladi. Ozg'in, past bo'ylik o'g'il o'smirlar, rivojlanishida orqada qolgan o'smirlar, atrofdagilarga kichkina, moslashmagan bo'lib ko'rinadi va shu muhtojlikni sezgan holda, himoyada agressivlikni namoyon qiladi. Bunday xulq o'z-o'ziga ishonmaslik, atrofdagilarga shafqatsizlarcha muomala qilishga olib keladi.

Bunday muammolar o'smirni rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. O'sib kelayotgan organizm tashqi tushunmovchiliklar bilan atrof muhitni har xil his etadi. Deviant tipdagi o'smirlar o'z atroflaridagi normal tipdagilar bilan munosabatlarda ularga salbiy ta'sir qilishadilar.

O'smirlarning bir qismi ishlashni, o'qishni xohlamay, yaxshi hayot kechirishni, ko'p pul, hatto oltin, tilla bo'lishini xohlaydilar. Boshqalar o'z xohishini, "Onaga sovg'a qilish", "uni himoya qilish" bilan ifoda etadilar. Lekin boshqa tamondan badjahillikni, jinoyatga qo'l urushlarni namoyon qiladi. Bochkaryova G.G.ning nazariy tadqiqotlarida muloqotni bayoni, savol-javoblar usullari ishlatiladi. Shaxsning kamol topishida va uning xulqiga ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha bir xil bo'lavermaydi. Inson ruhiy xususiyatlarining rivojlanishi, hayotda o'z o'rnini topa olish, uning vatan, xalqning ravnaqi yo'lida og'ishmay,

e'tiqod bilan xizmat qilish, iymonli bo'lishi, insonni shaxs darajasiga ko'taradi. Bunday sifatlarning ro'yobga chiqishi tarbiyaga bog'liq bo'ladi [9].

XULOSA. Demak, ta'lim – tarbiya muassasalaridan tashqari tarbiyaviy ta'sirlar, ya'ni kundalik ijtimoiy voqeliklarning shaxsga ko'rsatayotgan ta'siri, ularni ijtimoiy psixologik, ilmiy, nazariy va amaliy o'rganishga ehtiyoj ortib bormoqda. Ijtimoiy hayotning turli jabhalari shaxsga ayniqsa o'smirlarga, albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'smirlik davrida destruktiv xulq-atvor shakllanishining oldini olish uchun oilalar, maktablar va jamiyat birgalikda harakat qilishlari zarur. Bu davrda o'smirlarning ichki ziddiyatlari va o'zini anglash jarayoniga jiddiy e'tibor berish, shuningdek, ularga ijobiy qo'llab-quvvatlov ko'rsatish kerak. Destruktiv xulq-atvorni erta aniqlash va unga mos psixologik yordam berish o'smirning sog'lom va muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

TAVSIYALAR

1. **Psixologik yordam va maslahatlar:** Professional psixologlarning yordami orqali o'smir o'zidagi ichki ziddiyatlarni anglash va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganishi mumkin.

2. **Ota-onalar bilan ishlash:** Ota-onalarga o'smirlarning psixologik xususiyatlarini tushuntirish, ularni qo'llab-quvvatlash va tushunishga o'rgatish muhim.

Ijtimoiy ta'sirni boshqarish: Maktab va boshqa jamoaviy muhitlarda ijobiy ta'sir ko'rsatadigan tadbirlar va shaxsiy rivojlanish mashg'ulotlarini tashkil qilish.

Adabiyotlar

1. Ahmedova Z. O'smir o'zingga ishon. - Toshkent: "Noshirlik yog'dusi" nashriyoti, 2019. – 112 b.
2. Jon Kexo G'ayriixtiyoriy ong mo'jizalari. Toshkent: "Davr Press" HMY nashriyoti, 2021. - 175 b.
3. Kamyu A. Sizif haqidagi afsona. Isyonchi. - Minsk, 1998 yil.
4. Ahmedova M. A. Falsafa. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2006. – 308 b.
5. Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш чанқоғи. – Тошкент: "Фалсафа ва ҳуқуқ" нашриёти, 2007. – 278 б.
6. Ал-Фараби. Вводный трактат в логику. Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. - Ташкент, 1976. – С. 128
7. Баратов М. Ибн Сино – буюк мутафаккир. – Тошкент: Фан, 1980. – 36 б.
8. Э. Фромм. Инсоннинг ҳалокатлилиги анатомияси. – Т.: Фан, 1994. 156 б.
9. <http://genderi.org/>